



HISTORY OF CULTIVATION AND STUDY OF BUSH CROPS IN AGRICULTURE OF THE UZBEK SSR

Behzod Ibodov

Doctor of Philosophy in History (PhD) Associate professor

E-mail: behzodibodov622@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Bush crops, wheat, yachmen, corn, oats, Agrarian Policy, cotton soloism, research institutes, selection and seeding, food safety, agrotechnics, historical and economic analysis.

Received: 17.04.26

Accepted: 18.04.26

Published: 19.04.26

Abstract: The article provides a systematic analysis of the historical and economic need for the cultivation of Bush crops in the Agriculture of the Uzbek SSR and the complex problems that have arisen in this process. It also justifies the fact that in the conditions of the policy of "cotton solitude" of the former Union period, the field of Agriculture has become a secondary branch, but the demand for domestic food and economic security necessitates a certain degree of attention to the cultivation of Bush crops. The article highlights the history of planting of Bush crops in the Republic, the adaptability characteristics of domestic and foreign seed varieties and the role and importance of research institutes in their study. The article will focus on the history of growing Bush crops in our country on the basis of archival documents, scientific research by foreign and domestic researchers, monographs, brochures in the funds of the National State Archive of Uzbekistan, and will include conclusions on the topic.

O‘ZBEKISTON SSR QISHLOQ XO‘JALIGIDA BOSHOQLI EKINLARNI YETISHTIRISH VA O‘RGANISH TARIXI

Behzod Ibodov

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD)

E-mail: behzodibodov622@gmail.com

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Boshqoli ekinlar, bugʻdoy, yachmen, makkajoʻxori, joʻxori, agrar siyosat, paxta yakkahokimligi, ilmiy-tadqiqot institutlari, seleksiya va urugʻchilik, oziq-ovqat xavfsizligi, agrotexnika, tarixiy-iqtisodiy tahlil.

Annotatsiya: Maqolada Oʻzbekiston SSR qishloq xoʻjaligida boshqoli ekinlarni yetishtirishning tarixiy-iqtisodiy zarurati va ushbu jarayonda yuzaga kelgan murakkab muammolar tizimli tahlil qilingan. Shuningdek, sobiq ittifoq davridagi “paxta yakkahokimligi” siyosati sharoitida gʻallachilik sohasining ikkinchi darajali tarmoqqa aylanib qolganini, biroq ichki oziq-ovqat ehtiyoji va iqtisodiy xavfsizlik talablari boshqoli ekinlarni yetishtirishga maʼlum darajada eʼtibor qaratishni taqozo etganini asoslab beradi. Maqolada respublikada boshqoli ekinlarning ekilish tarixi, mahalliy va chetdan keltirilgan urugʻ navlarining moslashuvchanlik xususiyatlari hamda ularni oʻrganishda ilmiy-tadqiqot institutlarining oʻrni hamda ahamiyati alohida yoritilgan. Maqola Oʻzbekiston Milliy Davlat arxivi fondlaridagi arxiv xujjatlari, xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari, monografiya, risolalar asosida mamlakatimizda boshqoli ekinlarni yetishtirish tarixiga bagʻishlanib, mavzuga doir xulosalarni oʻz ichiga oladi.

ИСТОРИЯ ВОЗДЕЛЫВАНИЯ И ИЗУЧЕНИЯ КУСТАРНИКОВЫХ КУЛЬТУР В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ УЗБЕКСКОЙ ССР

Бехзод Ибодов

Доктор философии по истории (PhD)

E-mail: behzodibodov622@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Кустарниковые культуры, пшеница, ячмень, кукуруза, овес, Аграрная политика, хлопководство, научно-исследовательские институты, селекция и семеноводство, безопасность пищевых продуктов, агротехника, исторический и экономический анализ.

Аннотация: В статье дается систематический анализ исторической и экономической необходимости выращивания кустарниковых культур в сельском хозяйстве Узбекской ССР и сложных проблем, возникших в этом процессе. Это также оправдывает тот факт, что в условиях политики "хлопкового одиночества" периода бывшего Союза сельское хозяйство стало второстепенной отраслью, но потребность в внутреннем продовольствии и экономическая безопасность требуют определенной степени внимания к выращиванию кустарниковых культур. В статье

освещается история выращивания кустарниковых культур в республике, особенности адаптивности отечественных и зарубежных сортов семян, а также роль и значение научно-исследовательских институтов в их изучении. В статье будет рассказано об истории выращивания кустарниковых культур в нашей стране на основе архивных документов, научных исследований зарубежных и отечественных исследователей, монографий, брошюр, хранящихся в фондах Национального государственного архива Узбекистана, и приведены выводы по теме.

Kirish. Sobiq sovet davrida O‘zbekiston SSR qishloq xo‘jaligi asosan paxta yetishtirishga ixtisoslashgandi. Lekin shunga qaramasdan, qishloq xo‘jaligida g‘allachilik, bog‘dorchilik, sabzavotchilik, polizchilik va chorvachilik kabi tarmoqlar ham rivojlanib bordi. Bunga respublikaning geografik o‘rni, tabiiy-iqlim sharoiti, qishloq xo‘jaligining boshqa tarmoqlari qatori g‘allachilikning rivojlantirish imkonini beradi. Bu esa respublikamiz qishloq xo‘jaligida boshoqli ekinlar, ayniqsa, g‘alla yetishtirishga alohida ahamiyat berilganligini ko‘rsatadi. Respublika sharoitida deyarli hamma donli va dukkakli ekinlarni o‘stirib, don yetishtirishni ko‘paytirish, sug‘oriladigan va lalmikor yerlarida bug‘doy, arpa, suli, tritikale, makkajo‘xori tariq, oq jo‘xori, grechixa, sholi, no‘xat, soya, mosh singari ekinlar maydonini kengaytirish, hosilni oshirish hisobiga donga bo‘lgan talabni ta‘minlash mumkin[1.]. Bunda respublikada hosilning ortib borishi, iqlimga mos navlarini yaratish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlariga ham alohida e‘tibor qaratildi.

Markaziy Osiyoning dehqonchilik xususiyatlarini o‘rganish maqsadida hozirgi O‘zbekiston hududlarida XX asr boshlaridan keng ko‘lamdagi qator stansiyalar, ilmiy – tadqiqot ishlari faoliyat yuritdi. Masalan, Bug‘doy navlarini o‘rganish ishlari bo‘yicha 1913 yilda Zarafshon tajriba dalasida V. Maligin tomonidan lalmikor yerlar uchun ilmiy izlanishlar olib borildi. Sovet hokimiyati o‘rnatilgach, 1925 yilda Zarafshon tajriba dalasi Kattaqo‘rg‘on tajriba stansiyasiga aylantirildi[2.]. Shundan so‘ng 1926 yilda bug‘doy yetishtirish bo‘yicha Qamashi tajriba stansiyasi, shu yili Toshkent viloyatining Chirchiq tumanida sholichilik tajriba stansiyasi ochildi. 1930 yilda Milyutinskiyda (hozirgi G‘allaorol)da tajriba stansiyasi ish boshladi va 1937 yildan bu stansiya Milyutin davlat seleksiya stansiyasi deb ataldi. Milyutin davlat seleksiya stansiyasi 13 ta qishloq xo‘jalik ekinlari, xususan bug‘doy, yachmen, makkajo‘xori, tarvuz, qovun, jo‘xori, zig‘ir, beda va boshqa qishloq xo‘jalik ekinlarini o‘rganib, ularning qishloq xo‘jaligining 50 foiz yerlariga ekiladigan 17 tur o‘simlikni qishloq xo‘jaligiga joriy etdi. Ularni

orasida bug‘doyning “Qizil Sharq” navi yuqori baho oldi, arpaning “Unumli arpa” navi, zig‘irning “Baxmal-1056”, tarvuzning “Uzun-112” navi, bedaning “Milyutin-1774” navlari nom qozondi[2. 55-b.]. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, xalq seleksiyasi O‘rta Osiyoda yaxshi rivojlangan bo‘lib, bu yerda g‘o‘za, zig‘ir, don, beda, sabzavot, poliz ekinlari uzoq yillar davomida ekib kelindi, tok va mevali daraxtlarning qimmatli navlari yaratildi. Biroq, O‘zbekiston SSR sovet davlati hukmronligi yillarida g‘allachilik bo‘yicha eng qoloq o‘lkalardan biri bo‘ldi. Bu davrlarda g‘alla yetishtirish faqat lalmi yerlar hisobiga amalga oshirib kelindi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda g‘alla ekiladigan 1,5 million gektar lalmi yerga paxta ekildi. Shunday bo‘lsada, O‘zbekistonda 1937-1961 yillarda bug‘doy navlari 6 marotaba almashtirildi.

Davlat seleksiya stansiyada 1957 yilda bug‘doyning “Xivit” va “Psevdotursik 142-22”, zig‘irning “Gibrid 115” navlari ishlab chiqarishda yuqori baho oldilar. Stansiya har yili lalmi yerlarda ekiladigan urug‘larning elita va superelita navlaridan 4-5 ming tonnasini yetkazib berdi. Respublikaning 12 kolxoz va sovxozida makkajo‘xorining gibrid navlarini tajribadan o‘tkazdi. Stansiya ekspeditsiyalarni tashkil etish hisobiga respublikaning turli hududlaridan makkajo‘xorining turli navlarining urug‘larini ham yig‘ib chiqdi. Ularning chidimli va serhosil navlari gibrid usulida, hatto, o‘z xolicha ham qishloq xo‘jaligida qo‘llanilishiga moslashtirilib ishlab chiqarildi[3.]. Keyinchalik mahalliy olimlardan S.G‘.G‘aybullayev 1950 yilgacha bo‘lgan davrni g‘alla ekinlari seleksiyasining birinchi davri deb atadi[2. 56-b.]. Chunki bu davrda g‘alla hosilini orttirish maqsadida turli xil navlarini ekib sinovdan o‘tkazildi. 1950 yillardan so‘ng g‘alla yetishtirish bo‘yicha tajribalar ortib bordi. Lekin shunga 1959-1960 yillarda mamlakatda don tanqisligi sezildi.

1959 yil KPSS MQning XXI s‘ezdidan so‘ng mamlakatda don tanqisligi hal etilganligi e‘lon qilinsada, 1960 yillarda mamlakatda oziq-ovqat tanqisligi sezildi. Mamlakatning markaziy qismlarida do‘kon peshtaxtalaridan yormalarning ba‘zi turlari, tuxum vermishel, sariyog‘, qaynatilgan sut, yarim tayyor go‘sh mahsulotlari yo‘qoldi, un va oq nonda uzilishlar boshlandi. Oziq-ovqat tanqisligini oldini olish maqsadida butun mamlakatda jo‘xori ekish avj oldirildi. 1960 yillarning boshiga kelib mamlakatda o‘zlashtirilgan yerlarning 4/1 qismiga jo‘xori ekildi va bu umumiy yerlarning 80 foizini tashkil etdi[4.]. Shu o‘rinda alohida ta’kidlash lozimki, sovet davlatida 1955-1964 yillar davomida g‘alla yetishtirish davlat rejasi uch marotaba 1956, 1958, 1964 yillarda bajarildi xolos. 1961 yildagi g‘alla tanqisligi tufayli reja horijdan g‘alla sotib olish hisobiga bajarildi[4. 312-b.] va SSSR Amerika g‘allasini keng miqyosda sotib olishga kirishdi.

1963 yil 20-avgustda KPSS Markaziy Komitetining “Davlat non resurslarini tejash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq 1964-yilda g‘alla eksportini

deyarli 4,5 million tonnaga kamaytirish, ya'ni amalda nolga tushirish rejalashtirildi va amalda SSSR 1963 yil sentyabridan kapitalistik mamlakatlarga g'alla eksport qilishni to'xtatdi[5.]. Biroq birgina tejamkorlikning o'zi yetarli bo'lmadi. Shuning uchun bir vaqtning o'zida chet eldan g'alla sotib olish dasturi ishlab chiqildi. 1963-yil 19-avgustda Markaziy Komitet Prezidiumi chet eldan bug'doy sotib olish to'g'risidagi qarorni ma'qulladi[5. 30-b.]. 1963-yil dekabr oyida Sovet hukumati AQSHdan 12 million tonna don partiyasini sotib olishga majbur bo'ldi va 1970-yillarga kelib don importi ko'paydi. Chetdan g'alla sotib olish SSSRda 1963-yildagi g'alla inqirozining og'irligini yengillashtirdi. Biroq, mamlakatda oziq-ovqat mahsulotlariga talab kuchayib, ocharchilik xavf solmasada, lekin oziq-ovqat mahsulotlariga tanqislik doimo sezilib turdi. Non mahsulotlarini harid qilish uchun navbatga turish holatlari kuchayib ketdi. Bu xususda hatto, 1979 yilning yanvar oyida "Pravda" gazetasiga xalqdan 16 ta xat ham keldi[6.]. Bu esa mamlakatda non tanqisligi yuqori bo'lganligini ko'rsatadi. Bu kabi holatlar ilmiy -tadqiqot ishlarini ham oshirishni talab etar edi.

1960-1961 yillarda institutning markaziy tajriba xo'jaligida, 1961 yil Qamashi tayanch punktida o'tkazilgan tajribalardan kuzda ekilgan "Leukurum-837" navi, erta bahorda ekiladigan "Menyanopus-40100" navlari eng yuqori hosildorlikka ega bo'lgan navlar ekanligi aniqlandi. Bundan tashqari "Leukurum-2F", "Gordiyeforme-95", "Provinsiale-88F" navlari sug'oriladigan va lalmikor maydonlarga bahorgi muddatlarda ekish uchun yaratilgan va respublikaning G'allaorol, Qamashi, Chiroqchi, Nurobod tumanlarining 20-30 ming gektar lalmikor maydonlariga ekildi[7.].

1974 yilga qadar lalmikor yerlarda dehqonchilik borasida ilmiy ishlar olib borilgan. Shu kunga qadar lalmikor yerlarda dehqonchilik yuritishning ilmiy asosini ishlab chiqish, lalmikor yerlarning turli mintaqalari uchun almashlab ekish sxemalarini, tuproq unumdorligini oshirishni agrotexnik usullari, tuproqdagi namlikni saqlash va undan tejamli foydalanishda tuproqqa ishlov berish va uni suv eroziyasidan himoya qilishning agrotexnik usullari ishlab chiqildi. Seleksiya natijasida 4 ta nav yaratilib, uning eng ko'p tarqalgan navi "Qizil Sharq" navi bo'ldi.

Birlashmada 1974 yildan keyin lalmi seleksiyasi davom ettirildi. Seleksiyada ilg'or usullarni qo'llash natijasida qattiq bug'doydan 2 ta nav, yumshoq bug'doydan 5 ta nav rayonlashtirildi, ishlab chiqarishga joriy etildi. Shulardan muhimi keyingi yillarda rayonlashtirilgan "Sangzar-6" va "Oq bug'doy" navlari bo'ldi[2. 18-b.]. Shuningdek, 1976 yilgacha seleksioner olimlar F.A.Kvyatkovskiy, I.M.Yudanov, N.V. Pokrovskiy, R.O.Katkova va boshqalar tomonidan mahalliy navlardan va chatishtirish orqali gibril navlarni, jumladan, "Grekum-240", "Grekum-128", "Grekum-646", "Grekum-2449", "Erntrospermum-811", "Erntrospermum-1910", "Vatan" va "Grekum-752" navlari yaratildi[2. 55-b.].

1976 yilda Lalmikor dehqonchilik ilmiy tekshirish instituti O‘zbekiston SSR G‘allachilik ilmiy tekshirish institutiga va 1990 yildan boshlab “G‘alla” ilmiy ishlab chiqarish birlashmasiga aylantirildi. 1971 yilda Seleksiya markazi ham tashkil etildi va u O‘rta Osiyo seleksiya markazi deb ataldi. 1976 yildan O‘zbekiston SSR G‘allachilik ilmiy tekshirish instituti g‘alla ekinlarining lalmikorlikka moslashgan navlarini, balki sug‘oriladigan yerlar uchun ham navlar yaratish borasida ilmiy ishlab olib borildi. Biroq, ilmiy-tadqiqot ishlari, lalmikor yerlardagi xo‘jaliklarda almashlab ekishni joriy etish va o‘zlashtirish masalasi xo‘jasizlik tufayli hal bo‘lmay qolaverdi. Masalan, O‘zbekiston SSRda qattiq bug‘doyning “Leukurum-3” ekilmay qoldi[8.]. 1980 yillarning oxiriga kelganda jahon seletsiyasi uslublaridan, xorijdan keltirilgan bug‘doy va arpa namunalari har tomonlama o‘rganish va ular asosida duragaylash, tanlash asosida sug‘oladigan yerlar uchun bug‘doyning 1990 yilda “Sanzar-4” navi yaratildi va bu nav keyinchalik Namangan, Samarqand viloyatlarida ekildi. O‘zbekiston SSRning janubiy hududlarida bir yilda ikki marta ekish mumkin bo‘lgan bug‘doy navi ham yaratildi[9.]. Bu esa respublikada g‘alla hosildorligining ortib borishiga sabab bo‘ldi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, sobiq ittifoq davridagi “paxta yakkahokimligi” siyosati respublikada g‘allachilikning tabiiy rivojlanish sur‘atlariga sezilarli darajada ta‘sir ko‘rsatdi. Lekin shunga qaramasdan respublikada g‘alla yetishtirishga, boshqoqli ekinlarning mahalliy iqlimga mos, qurg‘oqchilikka va kasalliklarga chidamli navlarini yaratish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borildi. Bu esa respublikada g‘allachilikning rivojlanishiga sabab bo‘ldi. O‘zbekiston SSR davridagi g‘allachilik tarixi faqatgina ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari bilan emas, balki murakkab sharoitda shakllangan ilmiy maktablar hamda seleksion yutuqlar bilan ham ahamiyatli hisoblanadi. Ushbu tarixiy tajribani o‘rganish bugungi kunda iqlim o‘zgarishi va suv taqchilligi sharoitida donchilikni yangi bosqichga olib chiqish uchun zarur hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Haydarov H. G‘alla yetishtirishning iqtisodiy samaradorligi. – T. Mehnat, 1989. 6-b.
2. O‘zbekiston dehqonchilik – sanoat majmuining ilmiy ta‘minoti. Ilmiy sessiya materillari. Toshkent, 1993 yil, 8-10 sentyabr. II jild. – Toshkent. Fan, 1995. – 18, 55, 56 b.
3. В научно-исследовательских учреждениях // Сельское хозяйство Узбекистана. 1957, - №7, - с. 76.
4. Новейшая история отечества. XX век: Учеб.для. студ.высш.учеб.заведений: Вып.2. – Москва. ВЛАДОС, 1999. – С. 309., 312.
5. Пивоваров Н. Зерновой кризис 1963-г. СССР и внешнеторговые коллизии его разрешения // Гуманитарые науки в сибире. 2019. Том 26, №1, - С. 29, 30.

6. Шубин А.В. От «застоя» к реформам. СССР в 1917-1985 гг. – Москва. РОССПЭН, 2000. - с. 112.
7. Qarshiboyev H., G‘aybullayev S., Mavlonov J. Qattiq bug‘doy ekini seleksiyasining rivojlanish tarixi // O‘zbekiston qishloq va suv xo‘jaligi. -№12, 2020. - 25 b.
8. Аманов М., П.Олейник. Результаты исследований в НУУ Среднеазиатского селекцентра по зерновым, зернобобовым, кормовым и масличным культурам за десятую пятилетку // Итоги научных исследований за десятую пятилетку. Труды УзНИИ зерна. Вып 19. – Ташкент. Упр. Пропаганды и внедрения достижений науки, техники и передового опыта МСХ УзССР, 1982. – с.17.
9. Итоги научных исследований за десятую пятилетку. Труды УзНИИ зерна. Вып 19. – Ташкент. Упр. Пропаганды и внедрения достижений науки, техники и передового опыта МСХ УзССР, 1982. – С.14